A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyalari, Omon Muxtorning "Tepalikdagi xaroba", "Ko'zgu oldidagi odam" romanlarida mistik elementlar orqali bugungi kun insonlarining ichki kechinmalari, ularning borliq haqidagi, ruh haqidagi o'y-fikrlari teran ochib berilgan. "San'at asarining badiiy mukammalligi, umrboqiyligi, mantunkorligi talay adabiy-estetik omillarga bog'liq. O'quvchi ko'ngliga zavq beradigan, inson olami, voqlelik ko'lami, his-tuyg'ular juda tiniq tasvirlangan, ayni chog'da, umuminsoniy muammolarni betakror uslubda, o'ziga xos san'at tilida obrazli talqin etgan badiiy asar qanday janr yoki ijodiy metodda yozilishidan qat'i nazar, eng sara sanaladi" [2;36-b.].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, istiqlol davri adabiyotida mistika yo'nalishi o'ziga xos tarzda taraqqiy etib bormoqda. Bu davr ijodkorlari hayotiy voqealarni mistik qarashlar, elementlar, g'ayritabiiy hodisalarni, qadimgi o'zbek mifologiyasi hamda tasavvufiy tushunchalarni qorishiq holatda tasvirlay boshladi. Jahon adabiyoti, xususan, G'arb adabiyotida mistika ko'proq dahshat va qo'rquvga asoslangan bo'lsa, o'zbek adabiyotida esa ko'proq sirli hodisalar, g'ayritabiiy voqealar orqali insonni kashf etish, ko'ngil olamining eng yashirin nuqtalarigacha borish, hayot mazmuni, tiriklikni teran anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Yan Parandoskiy. So'z kimyosi: badia-esse. Tarjimonlar: O.Sharafiddinov, M.Akbarov. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2022, 464-bet.

(2). Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. Toshkent, G'afur G'ulom nomdagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016, 364-bet.

(3). O'zbek xalq ertaklari. "Dono qiz". Ertaklar to'plami. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi Ergashboy Matyoqubov T. "Ilm-ziyo-zakovat", 2023, 42-bet.

(4). Najmiddin Komilov. "Tasavvuf". T., "Movarounnahr"–"O'zbekiston", 2009, 448-bet.

(5). Alisher Navoiy. "Lison ut-tayr" [matn]. Doston. Toshkent, "Tafakkur", 2020, 224-bet.

(6). Abdulla Qodiriy. "Jinlar bazmi": Hikoyalar. T., "Cho'lpon", 2004, 24-bet.

Palimbetova Malika Janabaevna (Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD;
malikapalimbetova91@gmail.com)

1970–1980-YILLARDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY MUHITNING QORAQALPOQ DRAMATURGIYASINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 1970–1980-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitning qoraqalpoq dramaturgiyasining rivojlanishiga ta'siri ilmiy tahlil qilingan. Davrning mafkuraviy qarorlari, teatr festivallari va T.Qayipberganov ma'ruzalaridagi daliliy fikrlar asosida dramaturgiyadagi janriy va badiiy o'zgarishlar ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *qoraqalpoq dramaturgiyasi, 1970–1980-yillar, ijtimoiy realizm, Orol muammosi, T. Qayipberganov, teatr san'ati.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ СРЕДЫ 1970-1980-ых ГОДОВ XX ВЕКА НА РАЗВИТИЕ КАРАКАЛПАКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Аннотация. *В статье научно анализируется влияние социально-политической и культурной среды 1970–1980-х годов XX века на развитие каракалпакской драматургии. На основе идеологических постановлений того периода, театральных фестивалей и докладов Т.Каипбергенова раскрываются жанровые и художественные изменения в драматургии.*

Ключевые слова: *Каракалпакская драматургия, 1970–1980-е годы, социалистический реализм, проблема Арала, Т.Каипбергенов, театральное искусство.*

THE INFLUENCE OF THE SOCIO-POLITICAL AND CULTURAL ENVIRONMENT OF THE 1970S–1980S ON THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK DRAMATURGY

Annotation. *The article scientifically analyzes the impact of the socio-political and cultural environment of the 1970s–1980s on the development of Karakalpak dramaturgy. Based on the ideological resolutions of the period, theatrical festivals, and report points by T. Kaipbergenov, the genre and artistic transformations in dramaturgy are revealed.*

Keywords: *Karakalpak dramaturgy, 1970–1980s, social realism, Aral Sea problem, T. Kaipbergenov, theatrical art.*

Kirish (Introduction). XX asrning 1970–1980-yillari qoraqalpoq milliy dramaturgiyasi va teatr san'ati tarixida tub burilish, ijtimoiy-psixologik realizm tamoyillarining chuqurlashuvi va professional kadrlar safining shakllanish davri sifatida alohida ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Bu davrda milliy adabiy jarayon sotsialistik realizm metodining qat'iy va biryoqlama qoliplaridan bosqichma-bosqich chiqib, inson-

ning ichki dunyosi, falsafiy-intellektual izlanishlar va jamiyatdagi axloqiy normalarni tanqidiy tahlil qilish darajasiga ko'tarildi.

1945–50-yillar oralig'ida Sovet davlati tarkibiga kiruvchi barcha mamlakatlarning adabiyotlari va san'at xodimlarining, shu jumladan, qoraqalpoq dramaturglari va san'at arboblarining ijodiy ishlarining bosh mavzusi Ikkinchi jahon urushining solgan og'ir oqibatlari, Germaniyani, fashistlarni yo'q qilgan jangchi sovet xalqining qahramonliklari, ko'rsatgan jasoratlarini so'zlovchi badiiy sahna asarlari yaratish vazifasi turdi. Demak, bu davr asarlarida davrning dolzarb masalalarini yoritishga katta e'tibor berildi. Masalan, bu yillardagi eng yaxshi deb e'tirof etilib, sahnaga qo'yilgan asarlardan J.Aymurzayevning "Amudaryo bo'yida," "Oygul va Obod", P.Tlegenovning "Birinchi gudok", A.Begimov va T.Allanazarovning "G'arib oshiq," S.Xo'janiyozovning "Sevmaganga suyanma" kabi pyesalari bo'ldi [1;172–178-b.].

1950–60-yillarda adabiyotimiz va madaniyatimiz katta yuksalish bosqichiga o'tdi. Qoraqalpoq adabiyoti va san'atining Moskvada o'tgan o'n kunligi (dekadasi) respublikamizdagi har bir ijodkor uchun muhim bosqich bo'ldi. Bu davrda dramaturgiyada jahon adabiyotidan tarjimalar qilindi, SSR xalqlari va boshqa tillardagi yozuvchilar asarlarini tarjima qilish 4–5 marta ortdi, 1950–60-yillar dramaturgiyasida asosiy mavzu zamonaviy mavzu, axloq masalalariga bag'ishlangan asarlar yaratish muhim ahamiyat kasb etdi.

Psixologik dramatizmni ko'rsatishga bag'ishlangan dramalar shu davrga kelib, ko'proq yozildi. Hozirgi zamon mavzusida yozilgan asarlarning ko'pchiligini janr jihatidan qaraganimizda musiqali komediyalar tashkil etishiga guvoh bo'ldik. Bu yillardagi asarlarda asosiy salbiy qahramon "mulla" obrazi bo'ldi. Biroq dastlabki mullalar shariatning "sof bandasi," barcha ishni uning ko'rsatmasi bo'yicha bajaradigan bo'lsa, 50–60-yillardagi mullalar faqat tirikchilikning g'ami uchun Qur'onni parda qilib yurgan ikki yuzli obraz sifatida ko'rindi [1;211-b.].

"Bu davr dramaturgiyasida eski doston uslubiga ancha yaqin bo'ldi. Dramatik asarlardagi kabi shablon syujetlar bir necha pyesalarda takrorlanishi bu davr dramaturgiyasiga xos bo'ldi. Ammo 1956-yillardan dramaturgiyaga yangi yosh dramaturglarimizning kirib kelishi bilan bu janrda o'zgacha muhit paydo bo'ldi. Yangi-yangi mavzular, g'oyalar, personajlar paydo bo'lib dramaturgiyamizni oldinga siljita boshladi" [2; 75-b.].

1960–1975-yillarda "Amudaryo" jurnalida e'lon qilingan tarjima pyesalar bu davr dramaturgiyasining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki ular jahon dramaturglarining dramatik asarlarini keng jamoatchilik, adabiyot muxlislari o'qishi uchun imkoniyat yaratish bilan birga, qoraqalpoq dramaturgiyasining g'oyaviy-mavzuiy va janr jihatidan boyishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu yillarda qozoq, qirg'iz, rus, o'zbek, arman, polyak adabiyotidagi dramatik asarlar hamda pyesalar qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi. Ular o'zining g'oyaviy-mavzuiy xususiyatlari va janri orqali qoraqalpoq dramaturgiyasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib turdi.

Tadqiqot usullari (Methods). Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tipologik va tekstologik tahlil usullaridan foydalanildi. 1970–1980-yillardagi «Amudaryo» jurnali sahifalarida e'lon qilingan pyesalar, Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasining plenum materiallari va arxiv hujjatlari ilmiy manba sifatida tadqiq etildi.

Natijalar va tahlil (Results and Discussion). 1970–1980-yillar qoraqalpoq adabiyoti, xususan, dramaturgiyasi tarixida alohida bosqichni tashkil etadi. Bu davr, bir tomondan, sovet davlatidagi "barqarorlik" yillariga to'g'ri kelsa-da, ikkinchi tomondan, jamiyat hayotida milliy o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarni yanada keng yoyish jarayonlarining boshlanishi bo'lib xizmat qildi.

Shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dramaturgiyaning mavzu ko'lamini kengaytirdi. Davlat tomonidan qabul qilingan adabiyot va san'atni rivojlantirishga oid qarorlar (1972-yil "Adabiy-badiiy tanqid to'g'risida," 1976-yil "Ijodkor yoshlar bilan ishlash to'g'risida"gi qarorlari va 1980-yillar boshida "Teatr san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" maxsus farmoyishlar chiqarildi) teatr ijodkorlari oldiga yangi mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi.

1970–1980-yillarda qoraqalpoq dramaturgiyasining janr xususiyatlari va badiiy tilining shakllanishida o'tkazilgan madaniyat kunlari va adabiyot o'n kunliklari (dekadalari)ning tizimli tarzda o'tkazilishi (1977-yil, Toshkentda "Qoraqalpog'iston adabiyoti va san'ati kunlari," 1980-yil Moskvada "Qoraqalpog'iston ASSR adabiyoti va san'ati kunlari," 1980-yillarning o'rtalarida Qoraqalpoq teatr jamoalarining Boltiqbo'yi respublikalari va Kavkazga ijodiy safarlari) qoraqalpoq dramaturglarining boshqa qardosh xalqlarning ijodiy tajribalarini o'zlashtirishiga zamin yaratdi.

Bu borada 1977-yili Toshkentda o'tkazilgan "Qoraqalpog'iston adabiyoti va san'ati kunlari" muhim bosqich bo'ldi. Ushbu tadbir davomida dramaturglar va teatr tanqidchilarining jonli muloqoti natijasida qoraqalpoq sahna asarlarida inson ruhiy olamini tasvirlashga e'tibor kuchaydi. O'zbekiston va Qoraqalpo-

g‘iston ijodiy tashkilotlarining hamkorligi natijasida teatrlarning repertuari yangi zamon qahramonlari bilan boyidi [3;112-b.].

1977-yili Toshkentda o‘tkazilgan "Qoraqalpog‘iston adabiyoti va san’ati kunlari"da S.Xo‘janiyozov asarlari yuqori baholandi va o‘zbek rejissyorlari bilan hamkorlik kuchaydi. Xususan, bu davrda K. Raxmanovning "Yarali yuraklar" (1977), "Laqmalar shifoxonada" (1979), X.Turimbetovning "Qudrat" (1977) kabi drama va tragediyalari yaratildi.

Dramaturgiya evolutsiyasidagi eng katta voqealardan biri 1980-yil oktabr oyida Moskva shahrida o‘tkazilgan Qoraqalpog‘iston ASSR adabiyoti va san’ati kunlari hisoblanadi. Ushbu nufuzli tadbirda qoraqalpoq dramaturgiyasining eng sara namunalari taqdim etildi. Xususan, Moskvaning markaziy teatrlarida S.Xo‘janiyozovning "Sevmaganga suykanma" komediyasi, J.Aymurzayevning "Berdaq" tarixiy dramasi, P.Tilegenovning "Onalar" tragediyasi namoyish etildi.

Moskva matbuoti va yetakchi teatr tadqiqotchilari bu asarlarni tahlil qilib, qoraqalpoq dramaturgiyasida milliy kolorit bilan birga, psixologik ruhning kuchayganligini alohida ta’kidladilar [4;2-b.]. Bu esa qoraqalpoq dramaturglari uchun yangi ijodiy yondashuvlarni ochib berdi va ularni jahon klassikasi namunalari bilan yaqinlashtirdi. Natijada jahon klassiklarining asarlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi. Bu mavzularda biz Q.Matmuratovning "Bir uyda ikki umr" (1981), O.Abdiraxmanovning "O‘jar" (1986), S. Xo‘janiyozovning "Go‘zallar" (1987), T.Qayipbergenovning "Familiya" (1987), D.Aytmuratovning "Ahmoqlikni kuylash" (1988), K.Rahmonovning "Zarigiryan" (1989) kabi komediya, tragediya va dramalarini ta’kidlab o‘tishimiz mumkin. Bu davrda "Amudaryo" jurnali Qoraqalpog‘istonda yuqori darajali adabiy-madaniy nashr sifatida qoraqalpoq adabiyotini rivojlantirish va jahon adabiyoti namunalarini qoraqalpoq xalqiga tanishtirishda qimmatli mehnat qilgan.

1975–1980-yillarda jurnal tahririyati jahon adabiyotining mumtoz dramalarini chop etish, teatr san’atini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Shu yillar orasida Gyotening "Faust" (1981-yil 9-, 10-, 11-, 12-sonlarida, 1982-yilning 1–2-sonlarida chop etilgan. Bu asarni mashhur shoir To‘lepbergen Matmuratov qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan), Esxilning "Prometey" (1985-yil 8-, 9-, 10-sonlarida chiqqan. Rus tili-dan tarjima qilgan mashhur tarjimon Daulen Aytmuratov) va Vishnevskiyning "Optimistik tragediyasi" (1987-yil 3-, 4-, 5-), asarni Rahim Qaymaqov qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan) asarlari tanlab olingan. Bu uch asar falsafiy, g‘oyaviy va estetik jihatdan bir-biridan mutlaqo farq qilsa-da, barchasida ham insoniya-tning kurashi, ozodlik, onglilik va poklik mavzulari markazda turadi.

Shuningdek, 80-yillarning ikkinchi yarmida Boltiqbo‘yi respublikalari va Kavkazda o‘tkazilgan ijodiy safarlar dramaturgiyaga yangi ramziy obrazlarning kirib kelishiga turtki bo‘ldi. Bu davrda K.Rahmonovning "U dunyoga taklif" kabi asarlarining paydo bo‘lishi dramaturgiyaning falsafiy-estetik jihatdan yangilanganidan darak beradi.

1970–1980-yillardagi madaniyat kunlari nafaqat erishilgan yutuqlarni namoyish etish maydoni, balki ijodiy laboratoriyani yanada rivojlantirish vazifasini ham bajardi. Xususan, Moskva va Toshkentdagi ijodiy muloqotlar ta’sirida qoraqalpoq dramaturgiyasida an’anaviy folklor-etnografik tasvirlardan voz kechib, zamonaviy inson obrazini falsafiy talqin etishga o‘tish kuzatildi.

1970–1980-yillar qoraqalpoq dramaturgiyasining ijtimoiy va g‘oyaviy muammolarini rasmiy-tarixiy darajada umumlashtirishda Qoraqalpog‘iston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining raisi, taniqli jamoat arbobi va xalq yozuvchisi To‘lepbergen Qayipbergenovning Uyushma plenumlarida (jumladan, II, IV plenumlar va syezd ma’ruzalarida) qilgan ma’ruzalari muhim nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi. Ittifoq raisi T. Qayipbergenov IV plenumda (1987) o‘zi uzoq yillar davomida iste’dodsiz amaldor-mualliflar bilan aloqani buzmaslik, tinch ishlash maqsadida ularning badiiy saviyasi juda past pyesalarini teatr sahnasiga o‘tkazib yuborganini, ya’ni, "murosasozlik" yo‘lidan yurganini ochiq tan oldi [5;12–21-b.].

T.Qayipbergenov o‘z ma’ruzalarida milliy dramaturgiyadagi yutuqlar bilan birga, uning nasr va she’riyatdagi ulkan muvaffaqiyatlar fonida "ortda qolayotganini" ochiq va dadil e’tirof etdi. U 11-besh yillik (1981–1985-yillar) ma’ruzasida partiya va hukumat tomonidan adabiyot oldiga qo‘yilgan salmoqli "ijtimoiy buyurtmalar"ni bajarishda dramaturglarning passivligini tanqid qildi. Xususan, Nukusda qurilishi boshlangan yirik Paxta gazlamalari (tekstil) kombinati misolida respublikada ishchi sinfi safi kengayib borayotgan bir paytda, mualliflar ushbu yirik sanoat qurilishining jonli nafasini, quruvchilar va ishchilar qahramonligini sahna asarlariga ko‘chira olmayotganligini aytdi.

Eng muhimi, T.Qayipbergenov o‘zining 1981-yilgi ma’ruzasida adabiyot va teatr tarixida birinchi marta Orol dengizi fojiasini eng o‘tkir ijtimoiy, ekologik va falsafiy muammo sifatida teatr mas’uliyatiga yukladi. U Orol dengizini "Markaziy Osiyo hududidagi yerning jonli ko‘zi" deb atadi va agar shu ko‘z yumilsa, millionlab gektar unumdor yerlar Qizilqum va Qoraqum cho‘llarining ko‘chma qumlari ostida qolib

nobud bo'lishini, iqlim o'zgarib, mintaqa ekohalokat maydoniga aylanishini ilmiy bashorat qildi. Dramaturglardan esa bu ofat haqida jamiyatni uyg'otuvchi, ijtimoiy ahamiyatga ega asarlar yaratishni qat'iy talab qildi. U Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi dramaturgiya kengashida sahna sirini va uning o'ziga xos qonuniyatlarini chuqur tushunadigan professional teatrshunos mutaxassislarning yetishmasligi milliy dramaning rivojlanish sur'atiga to'siq bo'layotganini tahlillar asosida isbotlab berdi.

T.Qayipbergenov Yozuvchilar uyushmasini qayta qurish va asarlar sifatini oshirish uchun uning barcha quyi bo'g'inlari, ayniqsa, janrlar bo'yicha tuzilgan ijodiy kengashlar (sovetlar)ning to'liq faoliyat yuritishi shart ekanligini ta'kidlab o'tadi. Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi boshqarmasining raisi To'lepbergen Qayipbergenovning Uyushmaning II plenumida o'qigan ma'ruzasida [6;4-b.] dramaturgiya kengashi o'zining so'nggi majlislarida respublikadagi professional va havaskor mualliflarning pyesalarini chuqur tahlil qilgan. Dramaturgiya kengashi a'zolari faqat yoshi kattalarning asarlari bilan cheklanib qolmay, yosh dramaturglarning pyesalarini ham tahlil markaziga olib chiqqan.

Kengash majlislarida taniqli dramaturg P.Tlegenovning, shuningdek, dramaturgiyaga yangi kirib kelayotgan yosh mualliflar K.Karimov hamda O.Qallibekovlarning yangi yozilgan pyesalari g'oyaviy-badiiy va kompozitsion jihatlari qattiq tanqid qilingan. Bu tahlillar yoshlarning drama texnikasi va sahna qonuniyatlarini to'g'ri o'rganishi uchun maktab vazifasini o'tagan.

Qoraqalpog'iston hududida Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tatariston, Boshqirdiston va Tojikiston madaniyat vakillarining qabul qilinishi hamda 1981-yil iyun oyida qoraqalpoq delegatsiyasining Tataristondagi qoraqalpoq madaniyati kunlarida ishtiroki teatr jamoalariga kuchli g'oyaviy turtki bergan. Sovet teatri va adabiyotining yirik so'z ustalari–M.Sholoxov, Y.Bondarev, Sh.Rashidov, V.Astafev, Ch.Aytmatov, R.Gamzatov va N.Dumbadzelarning badiiy tajribasi qoraqalpoq yozuvchilari va dramaturglari uchun doimo ijodiy ta'sir etib kelayotgani aytiladi.

Partiya va hukumatning 11-besh yillik rejalari (1981–1985) hamda strategik ko'rsatmalari asosida qoraqalpoq teatri va adabiyoti oldiga butunlay yangi, qat'iy "ijtimoiy buyurtmalar" qo'yilgan [6;31–38-b.].

Nukusda qurilishi boshlangan ulkan Paxta to'qimachilik kombinati (tekstil kombinati) misolida respublikada ishchi sinfi safi va ko'lami keskin ortadi. T.Qayipbergenov dramaturglardan ushbu yirik sanoat qurilishining har bir kunini, poydevoridan boshlab ishga tushirilguniga qadar bo'lgan harakatlarni yaratishni talab etadi. Quruvchi va ishchilar bilan oddiy rasmiy uchrashuv emas, "ularning o'z odamiga aylanib ketishimiz kerak" degan tamoyil qo'yiladi.

Bayonotda aytilishicha, Orol dengizining taqdiri ilk bor eng o'tkir ijtimoiy va falsafiy muammo sifatida teatr va adabiyot zimmasiga yuklatilgan. Orol dengizi – "butun dunyo, O'rta Osiyo hududidagi yerning jonli ko'zi" deb ataladi. Agar shu ko'z yumilsa, mintaqada nafaqat iqlim o'zgaradi, balki millionlab gektar unumdor yerlar Qizilqum va Qoraqum cho'llarining ko'chma qumlari ostida qolib, yo'q bo'lib ketishi aytiladi. Dramaturglar va nosirlar ushbu ofat haqida jamiyatni uyg'otuvchi asarlar yaratishi kelajakdagi bosh reja etib belgilangan.

T.Qayipbergenov qoraqalpoq dramaturgiyasining hali ham juda orqada qolayotganini ochiq tan oladi: "Rostini aytishimiz kerak, bizning adabiyotimizda dramaturgiya janri hali ham orqada qolib kelyapti". Sahnada A.Gelmanning "Biz, quyida imzo chekuvchilar", A.Dvoretskiyning "Tashqaridan kelgan odam", A.Abdullinning "O'n uchinchi rais" asarlari kabi o'tkir ijtimoiy mavzudagi milliy pyesalar yetishmaydi. Pirlepes Tlegenovning pyesalari asosida O'zbekiston televideniyasida "Bir fojia izidan" nomli uch seriyali telespektaklning qo'yilishi qoraqalpoq dramaturglarining salohiyati borligini isbotladi. Kenesbay Raxmanovning faolligi va Tajetdin Seytjanovning dramaturgiyaga qaytishi dramaturgiyamiz uchun juda muhim hodisa bo'ldi. Uyushma huzuridagi dramaturgiya kengashida pyesalarni muhokama qilishda sahna tilini biladigan professional mutaxassislar yetishmaydi. Teatrlar va rejissorlar tayyor original pyesalar yo'qligidan yaxshi roman va qissalarni (mualliflar ishtirokida) sahna va telestudiyaga moslab ishlashi shartligi ko'rsatilgan.

Shunday qilib, To'lepbergen Qayipbergenovning dramaturgiya kengashida P.Tlegenov va K.Karimovning pyesalari tanqidga olinganligi, Berdaq mukofotining 2 baravar oshirilganligi, Tatariston madaniyat kunlarining yakunlari hamda Orol dengizi fojiasi va sanoat qahramonlarining milliy sahna va adabiyot oldidagi eng birinchi g'oyaviy va ijtimoiy burchi (vazifasi) ekanligi rasmiy tarzda dalillangan.

Xulosa (Conclusion). 1970–1980-yillardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhit qoraqalpoq milliy dramaturgiyasining g'oyaviy-tematik va badiiy jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'ldi. Bu davrda sovet mafkurasining qat'iy qoliplariga qaramay, milliy o'zlikni anglash, psixologik realizm va axloq-odob masalalari chuqurlashdi. Toshkent, Moskva, Boltiqbo'yi respublikalari va Kavkazda o'tkazilgan madaniyat kunlari tadbirlari dramaturglarning ijodiy tajribasini boyitdi. Natijada qoraqalpoq dramatur-

giyasi janr va g‘oyaviy-tematik jihatdan boyib bordi. Jahon adabiyoti namunalari asosida dramatik asarlar yaratildi. Xulosa qilib aytganda, 1970–1980-yillar dramaturgiyasi milliy teatr san’ati rivojlanishida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Нурмухаммедов М., Баҳадирова С., Мамбетниязов Т., Нийетуллайев С., Насруллаев Ә. Қарақалпақ совет әдебияты. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1979, 172–178-бетлер.

(2). Алланазаров Т. Театр ҳәм драматургия. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1982, 75-бет.

(3). Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг адабиёт ва санъат масалалари бўйича қарорлари тўплами (1970–1985 йиллар). Тошкент, «Ўзбекистон», 1986, 112-бет.

(4). Искусство солнечного Приаралья. К Дням литературы и искусства Каракалпакской АССР в Москве. “Советская культура”, 1980, 14 октября. № 83, с. 2.

(5). Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ совет әдебиятының қайта қурыў дәўириндеги жағдайы ҳәм ўазыйпалары (Қарақалпақстан Жазыўшылар союзының IV пленумындағы доклад). “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1987, № 7, 12–21-бетлер.

(6). Қайыпбергенов Т. КПСС XXVI съезди ҳәм Қарақалпақстан жазыўшыларының ўазыйпалары. “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1981, № 7, 8–15-бетлер.

(7). Қайыпбергенов Т. Қарақалпақ совет әдебиятының актуаль мәселелери. “Әмиўдәрья”, Нөкис, 1983, № 10, 31–38-бетлер.

Qosimova Shahodat (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi; shakhodat84@gmail.com)

KIM CHUXENING “KICHIK ZAMIN YOVUZLARI” ROMANIDA AYOL VA TEATR MUAMMOSI

Annotatsiya. *XX asr birinchi yarmi koreys jamiyatida barcha sohalar qatori adabiyot bilan birga teatr san’ati ham rivojlanishning yangi bosqichiga kirdi. Ma’lumki, koreys teatri ildizlari moziyga borib taqaladi. Dastlab, koreys milliy teatrida faqat ko‘cha aktyorlari–kvandelar barabanlar jo‘rligida har bir personajga mos niqob ostida rollarni ijro etganlar. Pxansorilar uchun xalq og‘zaki ijodidan kelayotgan qissalar manba bo‘lib xizmat qilgan. XX asr boshida mamlakatda zamonaviy teatr binolari qurildi, avvallari katta hovli, bog‘ va ochiq maydonda sahnalashtirilgan asarlar uchun bezaklar o‘ylab topildi. Teatr maktablariga asos solindi, rollar taqsimlandi. Birinchi ayol aktrisalar yetishib chiqdi. Albatta, ular kisenlar edi.*

Mazkur maqolada yozuvchi Kim Chuxe qalamiga mansub “Kichik zamin yovuzlari” romanida yoritilgan kisenlar, ularning hayoti, kiban maktabi, ayol va teatr masalalari tahlil qilindi. Roman kitobxonda ham tarixiy voqelik, ham koreys xalqining milliy teatri haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Roman tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy milliy koreys teatrlari uchun tanlangan birinchi aktrisalar, ular orasida yuzaga kelgan raqobat, teatr rivojiga o‘zining chiroyli rollari bilan hissa qo‘shgan kisenlar obrazi transformatsiyaga uchragan. Asarda kisenlar obrazi salmoqli o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: *kisen, kurtizan, teatr, Chunxyan, qo‘shiq, Sim Chxon, Yashma, Liliya, Hilol, Dani, rol, Choson, Grant-Oriental.*

Косимова Шаходат (Ташкентский государственный университет востоковедения, независимый исследователь; shakhodat84@gmail.com)

ПРОБЛЕМА ЖЕНЩИНЫ И ТЕАТРА В РОМАНЕ КИМ ЧУХЕ «ЗВЕРИ МАЛОЙ ЗЕМЛИ»

Аннотация. *В первой половине XX века корейское общество вступило в новый этап развития во всех сферах, в том числе в литературе и театральном искусстве. Как известно, корейский театр своими корнями уходит в глубокую древность. Изначально в корейском национальном театре уличные актёры–квандэ–исполняли различные роли под аккомпанемент барабанов, используя маски, соответствующие образам персонажей. Источником сюжетов для пхансори служили повествования, восходящие к устному народному творчеству. В начале XX века в стране были построены современные театральные здания, разработаны декорации для постановок, которые прежде проводились в больших дворах, садах и на открытых площадках. Были основаны театральные школы, началось систематическое распределение ролей. Появились первые женщины-актрисы, которыми стали представительницы кисэн.*

В данной статье анализируются образы кисэн, особенности их жизни и деятельности, школа кибан, а также вопросы, связанные с положением женщины и развитием театра, представленные в романе Ким Чухе «Звери малой земли». Роман расширяет представления читателя как об исторической действительности, так и о национальном театре корейского народа. Анализ романа